# FARG‘ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

## FARG‘ONA VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQARISHI 2022-YIL YANVAR-DEKABR (DASTLABKI MA’LUMOT)



**Tel.: 73-241-96-28**
**www.farstat.uz**

# Farg‘ona viloyati
# sanoatining asosiy ko‘rsatkichlari

Dastlabki ma’lumotlar bo‘yicha 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida viloyat korxonalari tomonidan 30 390,5 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo‘lib, 2021-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 104,8 % ni tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr**
**mlrd.so‘m**






**Yanvar-dekabr**
**FHI, %da**




| | mlrd.so‘m | FHI, %da |
|---|---|---|
| Farg‘ona sh. | 6 846,5 | 98,6 |
| Qo‘qon sh. | 5 471,1 | 113,2 |
| Quvasoy sh. | 1 556,4 | 103,1 |
| Marg‘ilon sh. | 1 553,9 | 102,0 |
| Oltiariq | 651,4 | 115,9 |
| Qo‘shtepa | 1 465,5 | 120,4 |
| Bag‘dod | 1018,2 | 98,5 |
| Buvayda | 749,6 | 111,0 |
| Beshariq | 830,5 | 108,9 |
| Quva | 608,3 | 98,5 |
| Uchko‘prik | 2 548,8 | 107,4 |
| Rishton | 425,8 | 101,2 |
| So‘x | 111,6 | 103,9 |
| Toshloq | 3 172,3 | 97,7 |
| O‘zbekiston | 952,2 | 103,8 |
| Farg‘ona t. | 897,1 | 106,0 |
| Dang‘ara | 832,7 | 110,5 |
| Furqat | 503,1 | 108,0 |
| Yozyovon | 195,6 | 102,2 |

*mlrd.so‘m* *FHI, %da*

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Farg‘ona shahrida (22 642,9 ming so‘m), Qo‘qon shahrida (20 887,9 ming so‘m) hamda Toshloq tumanida (14 963,3 ming so‘m) Uchko‘prik tumanida (10 616,1 ming so‘m) ni tashkil etmoqda.











**Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o‘zgarishini tavsif-lovchi nisbiy ko‘rsatkichdir.*

## Sanoat ishlab chiqarishining asosiy tarmoqlari

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to‘g‘ri kelib, **28 375,8** mlrd.so‘mni, jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi **93,4 %** ni, tashkil etdi.

Hajmi, mlrd. so‘m




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida Viloyatda jami sanoat ishlab chiqarishidagi yuqori ulush Farg‘ona shahri (22,5 %), Qo‘qon shahri (18,0 %), Quvasoy shahri (5,1 %), Marg‘ilon shahri (5,1 %) hamda Toshloq (10,4 %) tumanlari hissasiga tog‘ri keldi. Shuningdek, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan yuqori FHI, Qo‘shtepa tumanida (120,4%), Oltiariq tumanida (115,9 %) hamda Qo‘qon shahrida (113,2 %) tumanlarida kuzatildi.

FHI, %da




Ulushi, %da



## B seksiya

### Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash

Tog‘-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalari tomonidan 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **95,4** mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining **0,3 %** ini tashkil etdi.



**Yanvar-dekabr**

| | |
|---|---|
| **2021-y.** | 138,5 *mlrd. so‘m* |
| **2022-y.** | 95,4 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2021-y.** | 52,0% |
| **2022-y.** | 55,9% |

## C seksiya

### Ishlab chiqaradigan sanoat

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi **28 375,8** mlrd. so‘mni yoki jami sanoat mahsulotlarining **93,4 %** ini tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr**

| | |
|---|---|
| **2021-y.** | 25 965,6 *mlrd. so‘m* |
| **2022-y.** | 28 375,8 *mlrd. so‘m* |

**FHI, *%da***

| | |
|---|---|
| **2021-y.** | 110,2% |
| **2022-y.** | 103.4% |



## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o‘sish sur’ati

*O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*

| Mahsulot | 2022 | 2021 | 2020 |
|---|---|---|---|
| Dizel yoqilg‘isi | 91,8 | 114,6 | 107,0 |
| Avtomobil benzini | 110,9 | 139,2 | 62,3 |
| Klinker sement | 83,8 | 118,6 | 78,5 |
| O‘simlik yog‘i (tozalangan) | 69,4 | 66,2 | 123,6 |
| Portlandsement | 106,5 | 72,9 | 103,8 |
| Yumshoq bug‘doy va spelta uni | 86,1 | 91,5 | 111,2 |
| Neft bitumi | 63,1 | 178,7 | 52,8 |
| Aroq ming litr (100% spirt) | 74,6 | 92,3 | 93,7 |
| Uzum vinosi | 65,8 | 54,7 | 99,8 |
| Karbamid | 80,1 | 102,6 | 94,6 |
| Paxta chigiti | 108,1 | 123,4 | 116,9 |
| Paxta linti | 138,8 | 126.2 | 93,3 |

2022-yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 254,8 ming tonna avtomobil benzini (2021-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan 10,9%ga ko‘paygan), 329,4 ming tonna dizel yoqilg‘isi (8,2 % kamaygan), 117,8 ming. tonna kalava ip mahsulotlari (13,1%ga kamaygan) hamda 43297,0 ming kv metr paxtadan tayyorlangan matolar (39,6%ga kamaygan) ishlab chiqarilgan.














## Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021-yil yanvar-dekabr | 2022-yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Avtomobil benzini, ming t | 229,8 | 254,8 | 25,0 |
| Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t. | 257,8 | 221,8 | -36,0 |
| Paxta chigiti, ming t. | 86,5 | 93,5 | 7,0 |
| O'simlik yog'i (tozalangan), ming t. | 21,5 | 14,9 | -6,6 |

Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida mashina va asbob- uskunalar ishlab chiqarish, ta'mirlash va o'rnatish, yarim tirkamalar va boshqa tayyor buyumlarni ishlab chiqarish sohasining ulushi – 8,5 % (2021-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 119,6%), to'qimachilik, kiyim, teri mahsulotlari ishlab chiqarishining ulushi – 38,6% (2021-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 109,5 %), oziq-ovqat, ichimlik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 16,1% (2021-yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 103,6%), kimyo mahsulotlari, rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 14,2 % (2021-yilning yanvar–dekabr oyiga nisbatan fizik hajm indeksi 113,4 %)ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,3 %ni (2021-yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,5 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 15,7 % (13,7 %), o'rta-quyi texnologiyali – 22,3% (24,9%) va quyi texnologiyalisi – 55,1% (54,2%)ni tashkil etdi.



## Metallurgiya sanoati






Ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati 134,0 mlrd. so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 0,5%ni tashkil etib, fizik hajm indeksi esa 59,9 % ni tashkil etgan.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida metallurgiya sanoati 254,4 mlrd.so‘mni yoki jami ishlab chiqariladigan sanoat hajmining 10,0%ni etdi o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 49,9 % ga kamaydi.

## Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish






2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 12,4 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 3,6 % ga o‘sgan va ishlab chiqarish hajmi 3 506,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 10,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,4 % ni tashkil etgan.

## Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish






2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 15,8 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 4,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 4 491,2 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 104,8 % ni tashkil etgan.

## Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi 1,5 % ni tashkil etdi, o‘tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 25,7 % ga kamaydi va ishlab chiqarish hajmi 66,3 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ichimliklar ishlab chiqarishining oziq-ovqat mahsulotlaridagi ulushi ulushi 1,7 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 96,0 % ni tashkil etgan.




## To‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 32,6 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 10,5 % ga o‘sgan bo‘lsa, ishlab chiqarish hajmi 9 243,2 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 30,9 % ni tashkil etgan bo‘lsa, uning fizik hajm indeksi 123,6 % ni tashkil etgan.




## Kiyim ishlab chiqarish

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 4,5 %, fizik hajm indeksi 107,1 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 1 278,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi. 2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 4,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 128,0 % ni tashkil etgan.



## Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,8 % ni, fizik hajm indeksi 102,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 3 340,9 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 11,0 % ni fizik hajm indeksi esa 106,3 % ni tashkil etgan.

## Koks va neftni qayta ishlash mahsulotlari ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, koks va neftni qayta ishlash mahsulotlarining ishlab chiqarish sanoatidagi ulushi 5,3 % ni, fizik hajm indeksi 89,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 492,0 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Shuningdek, 2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 8,6 % ni fizik hajm indeksi esa 68,0 % ni tashkil etgan.

## Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish




2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % ni, fizik hajm indeksi 92,4 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 693,4 mlrd.so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni fizik hajm indeksi esa 144,3 % ni tashkil etgan.

## Elektr uskunalari ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, ishlab chiqaradigan sanoatda elektr uskunalari ishlab chiqarish sanoatining ulushi 0,8 % ni, fizik hajm indeksi 112,1 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 233,7 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,6 % ni fizik hajm indeksi esa 131,4 % ni tashkil etgan.




## Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2022-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 3,3 % ni, fizik hajm indeksi 100,0 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 930,0 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,5 % ni fizik hajm indeksi esa 101,9 % ni tashkil etgan.




## Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish



2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 %, fizik hajm indeksi 67,9 % ga oshdi hamda ishlab chiqarish hajmi 670,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi.

Shuningdek, 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 1,3 % ni fizik hajm indeksi esa 82,8 % ni tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan 2022-yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 691,0 mlrd.so‘mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 5,6% ini) tashkil etadi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog‘ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug‘ bilan ta’minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 164,7 mlrd. so‘mga ko‘payganligi kuzatildi.






## Elektr, gaz, bug‘ bilan ta’minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| **Elektroenergiya, mln.kVt.s** | **395,8** | **393,7** | **-2,1** |
| **Issiqlik energiyasi, ming gkal** | **1 739,4** | **1 250,7** | **-488,7** |

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 228,3 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,7 %ini) tashkil etdi.

**Yanvar-dekabr**

| | | |
|---|---|---|
| | ***FHI, %da*** |
| ***2022-yil*** | **228,3 mlrd.so'm** | **120,3%** |
| ***2021-yil*** | **174,9 mlrd.so'm** | **80,4 %** |




| Sanoat mahsulotlari | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar-dekabr | Farqi +/- |
|---|---|---|---|
| Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, *mlrd.so'm* | **17,1** | **22,0** | **4,9** |
| Axlat o'ralarni, tindirgichlarni va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, *mlrd.so'm* | **15,6** | **29,0** | **13,4** |

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqava suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 4,9 mlrd. so'm yoki 22,2 %ga ortganligi kuzatildi. Shuningdek axlat o'ralarini tindirgichlarini va septiklarni bo'shatish, tozalash va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 13,4 mlrd. so'm va 40,5 %ga ko'paygan.

# Iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 11 776,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi va 2021-yilning mos davriga nisbatan 100,6%ni, uning jami sanoatdagi ulushi 38,8%ni tashkil etdi.

*Jami iste’mol mahsulotlaridagi ulushi, %da*

| | **Oziq-ovqat mahsulotlari** | **Nooziq-ovqat mahsulotlari** |
|---|---|---|
| **2021-yil yanvar-dekabr** | 39,5% | 60,5% |
| **2022-yil yanvar-dekabr** | 33,1% | 66,9% |

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari 66,3 mlrd.so‘mni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qo‘qon shahri 15,8%, Uchko‘prik tumanida 15,1% hamda Farg‘ona shahrida 12,4%ga to‘g‘ri keladi.



# Hududlar bo‘yicha iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib, 1 775,0 mlrd.so‘mni yoki jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishning 15,1 %i, Qo‘qon shahrida 1 860,9 mlrd.so‘mni jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarishining 15,8 %i shuningdek, Farg‘ona shahrida 1 462,7 mlrd. so‘mlik iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilib, jami iste’mol mahsulotlari hajmidagi ulushi 12,4 %ni tashkil etdi.

| | mlrd.so‘m | O‘sish sur’ati %da |
|---|---|---|
| Farg‘ona sh. | 1 462,7 | 100,1 |
| Qo‘qon sh. | 1 860,9 | 100,1 |
| Quvasoy sh. | 251.4 | 100,3 |
| Marg‘ilon sh. | 1 182.1 | 100,1 |
| Oltiariq | 227,4 | 126,9 |
| Qo‘shtepa | 378.9 | 100,2 |
| Bag‘dod | 966,4 | 100,1 |
| Buvayda | 386,3 | 100,2 |
| Beshariq | 272,8 | 100,2 |
| Quva | 333,6 | 100,2 |
| Uchko‘prik | 1 775,0 | 100,1 |
| Rishton | 214,6 | 100,2 |
| So‘x | 83,9 | 104,0 |
| Toshloq | 819,6 | 100,1 |
| O’zbekiston | 329,5 | 100,2 |
| Farg‘ona t. | 234,8 | 100,4 |
| Dang‘ara | 487,5 | 100,2 |
| Furqat | 326,8 | 101,0 |
| Yozyovon | 182,2 | 100,3 |

**10 774,6** mlrd.so‘m

*2021-yil yanvar-dekabr*

**11 776,5** mlrd.so‘m

*2022-yil yanvar-dekabr*

**Jami sanoat ishlab chiqarish hajmida iste’mol mahsulotlarining ulushi**




2021-yil 108,8%

2022-yil 100,6%

# Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi

Farg‘ona viloyati bo‘yicha aholi jon boshiga iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 2 991,7 ming.so‘m bo‘lgani holda 2021-yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 98,6 %ni tashkil etdi. Bunda hududlar bo‘yicha Qo‘qon shahrida – 7 104,5 ming.so‘mga, Uchko‘prik tumanida 7 393,2 ming so‘m, Toshloq tumanida 3 866,1 ming so‘mga, Farg‘ona shahrida esa 4 837,5 ming so‘mga to‘g‘ri keldi.




**Farg‘ona viloyati**

2792,6 ming so‘m

*2021-yil yanvar-dekabr*

2 991,7 ming so‘m

*2022-yil yanvar-dekabr*



2021-yil 106,7%

2022-yil 98,6%

# Hudular bo‘yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati jami hajmidagi eng yuqori ulushi Uchko‘prik tumaniga to‘g‘ri kelib 21,0 %, Bag‘dod tumaniga 9,7% ni , shuningdek, Qo‘qon shahri 12,7% ni, Farg‘ona shahri esa 8,6 %ni tashkil etdi.

***Yanvar-dekabr***

*Hajmi, mlrd.so‘m*

**4 258,1** **2021-yil**

**3 903,4** **2022-yil**

*O‘sish sur’ati %da*

**104,5%** **2021-yil**

**105,6%** **2022-yil**

**Jami iste’mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi %**






# Hudular bo‘yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o‘sish sur’ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining Farg‘ona viloyati iste’mol mollari jami hajmidagi eng yuqori ulushi shahar va tumanlar orasida Qo‘qon shahriga to‘g‘ri kelib, 17,3%ni, Farg‘ona shahrida 14,3% shuningdek, Uchko‘prik tumanida 12,1 %ni tashkil etadi.

***Hajmi mlrd.so‘m***

**2022-yil yanvar-dekabr** — **7 873,1**

**2021-yil yanvar-dekabr** — **6 516,6**



Jami iste’mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida nooziq-ovqat mahsulotlarining ulushi **66,9%**

***O‘sish sur’ati***

**2022-yil yanvar-dekabr** — **98,5 %**

**2021-yil yanvar-dekabr** — **112,0 %**

| | | |
|---|---|---|
| **Farg‘ona sh.** | **1 128,0** | **103,5** |
| **Qo‘qon sh.** | **1 363,6** | **99,8** |
| **Quvasoy sh.** | **164,8** | **104,2** |
| **Marg‘ilon sh.** | **845,6** | **97,1** |
| **Oltiariq** | **147,2** | **165,0** |
| **Qo‘shtepa** | **251,5** | **100,8** |
| **Bag‘dod** | **587,6** | **103,2** |
| **Buvayda** | **226,7** | **87,3** |
| **Beshariq** | **206,1** | **99,7** |
| **Quva** | **130,8** | **97,6** |
| **Uchko‘prik** | **954,6** | **85,1** |
| **Rishton** | **137,1** | **104,2** |
| **So‘x** | **33,5** | **83,6** |
| **Toshloq** | **755,6** | **99,1** |
| **O‘zbekiston** | **203,3** | **100,3** |
| **Farg‘ona t.** | **101,4** | **84,1** |
| **Dang‘ara** | **379,9** | **103,8** |
| **Furqat** | **149,5** | **100,4** |
| **Yozyovon** | **106,4** | **102,3** |

**Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishida kichik biznesning ulushi 2022-yilning yanvar -dekabr oylarida**

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 13 398,3 mlrd.so‘mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 44,1 %ni tashkil etdi.

Hududlar kesimida viloyatdagi Beshariq, So‘x, Yozyovon tumanlari sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish 100% kichik tadbirkorlik subyektlari hisobiga tashkil etilgan. Kichik biznesning sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishdagi eng yuqori ulushi Furqat tumani (96,4%), Uchko‘prik tumani (85,1%), Buvayda tumani (78,0%), Bag‘dod tumani (76,9%), Rishton tumani (51,9%),tashkil etgani holda eng past ulushli hududlar, Quva tumani (32,0%), Farg‘ona tumani (25,0%), Toshloq tumani (13,2%), sanoat ishlab chiqarish hajmlaridagi kichik biznes subyektlari ulushining kamligini, mazkur hududlarda joylashgan yirik sanoat korxonalarining ishlab chiqarish hajmlari yuqori ekanligi bilan izohlash mumkin.



*2023-yil 1-yanvar holatiga*

## Farg‘ona viloyatida faoliyat ko‘rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda Farg‘ona viloyatida 11742 ta sanoat korxonalari ro‘yxatdan o‘tgan bo‘lib ulardan 11058 tasi faoliyat ko‘rsatmoqda, shundan 1510 tasi (faoliyat ko‘satayotgan korxonalar umumiy sonining 13,7 %) Qo‘qon shahriga, 1322 tasi (12,0%) Farg‘ona shahriga, 1111 tasi (10,0 %) Marg‘ilon shahriga, 733 tasi (6,6%) Uchko‘prik tumaniga, 667 tasi (6,0 %) Dang‘ara tumaniga, 661 tasi (6,0 %) O‘zbekiston tumaniga to‘gri kelmoqda.




*Yangi tashkil etilgan*

*Faoliyat ko‘rsatayotgan*

**2021-yil** — 2111 dona

**Yangi tashkil etilgan korxonalar**

**2022-yil** — 1965 dona



**Jami faoliyat yuritayotgan korxonalar**

**2021-yil** — 9983 dona

**2022-yil** — 11056 dona

# Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi

Respublikada sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning yuqori o'sish sur'atlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirilishi ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 162 ta loyiha bo'yicha 2189,8 mlrd. so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 49,0 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi.

| | **2021-yil yanvar-dekabr** | **2022-yil yanvar-dekabr** |
|---|---|---|
| **Loyihalar soni, *birlikda*** | *132 ta* | *162 ta* |
| **Korxonalar soni,** *birlikda* | *110 ta* | *120 ta* |
| **Ishlab chiqarish hajmi** | *1173,1 mlrd.so'm* | *2189,8 mlrd.so'm* |
| **Yaratilgan yangi ish o'rinlari,** *birlikda* | *1246 ta* | *717 ta* |

***Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida 717 ta yangi ish o'rinlari yaratildi va o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rinlari soni kamayganligi kuzatildi.***